

ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Achiliva Nasiba Saidovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi

e-mail: achilovanasiba1963@gmail.com

tel.raqami: +998905026665

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida yangi usullarni qo'llab, ular orqali yoshlarni Vatan tuyg'usi, milliy g'oyalar, do'stlik, ma'rifatparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash haqidagi metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Blis savollar, kimda ko'p?, donolar bisotidan, sirli sandiq, zukko o'quvchi, bizni birlashtiring, telegramma, test ishlash.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ikkinchi sifat bosqichida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalardan eng muhimi uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarining faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish belgilab qo'yilgan. Bugun o'sha yangi pedagogik texnologiyalar amalda keng qo'llanilib, dars o'tish usuli talabiga aylandi. Har bir pedagog darsni yangi pedagogik texnologiya asosida o'tishi maqsadga muvofiq, chunki yangi pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida kam jismoniy kuch va vaqt sarflanib, ayniqsa, talabalarning mustaqil ishlashi, izlanishi va ijodkorlik qilishiga zamin yaratadi.

Ushbu maqolada akademik litseylarning II kursida «Ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan mashqlar ishlash» mavzusini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarda fanga havas uyg'otish, dars samaradorligini oshirish, talabalarning hamkorlikda ishlash malakasi va ko'nikmasini shakllantirish, talabalarda sog'lom raqobat haqida muayyan tushuncha va tasavvurni uyg'otish muammolari hamda ularning yechimini topishga harakat qildim.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida «Blis savollar», «Kimda ko'p?», «Donolar bisotidan», «Sirli sandiq», «Zukko o'quvchi», «Bilarmidingiz?», «Bizni birlashtiring», «Telegramma», «Test ishlash», «Meni tanla» kabi qator usullarni qo'llab, yaxshi natija berishini tajribamda sinadim.

«**Blis savollar**» usuli asosida savol-javob o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi mavzuga oid savollarni tez-tez o'qiydi, qaysi guruh o'quvchisi birinchi bo'lib qo'l ko'tarsa, o'sha javob beradi va rag'bat kartochkasini oladi. 1. Ergashgan qo'shma gaplar deb nimaga aytiladi? 2. Ergashgan qo'shma gaplar necha qismdan tashkil topadi? 3. Qanday gapga bosh gap deyiladi? 4. Qanday gapga ergash gap deyiladi?

5. Ergashgan qo'shma gap qismlari bilan so'z birikmasi qismlari o'rtasidagi o'xshashlik nimada? 6. Ergash gap bosh gapga qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi? 7. –ki bog'lovchi vositasi qaysi gapning tarkibida bo'ladi?

Bu kabi savollarning tez-tez o'qilishi o'quvchidan hushyorlikni, tetiklikni, hozirjavoblikni talab etadi.

«**Kimda ko'p**» usulida guruhlar –sa shart maylidagi fe'llar bilan bog'langan ergash gaplarga doir maqol keltirishadi. Eng ko'p maqol topgan guruh g'olib hisoblanadi. Bu usul orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati namoyon bo'ladi. Ular maqollar haqidagi bilim va ko'nikmalariga tayangan holda ijod qiladilar.

«**Donolar bisotidan**» usulida «Asqad Muxtor o'gitlari» nomli sahna ko'rinishi namoyish etiladi.

Dedim: - Ayting-chi, ustoz, falakning gardishi bilan qayta dunyoga kelsangiz, tag'in shu umr yo'lini tanlarmidingiz?

Dedilar: - Ha, shu yo'ldan borardim, ammo xatolarimni takrorlamaslik payida bo'lardim.

Dedim: - Xatolaringiz ko'pmi?

Dedilar: - Xatolarim shuki, umrim davomida kam bilim oldim, ko'proq hunar o'rganmadim.

Dedim: - Kishi bilimli, hunarli, zakovatli bo'lsa, nimalarga erishadi?

Dedilar: - Agar kishi bilimli, hunarli, zakovatli bo'lsa, omad ularga ikki qo'lini cho'zgan go'dakdek talpinadi.

O'quvchilar sahna ko'rinishini tomosha qilib, undagi ergashgan qo'shma gaplar va ularning turlarini aniqlaydilar. Bu orqali ularda ilmga chahqoqlik, mehnatsevarlik fazilatlarini ug'otish mumkin.

«**Sirli sandiq**» usulida sandiqcha ichidan o'quvchilar A.Navoiy hikmatlarini o'qib, ularni tahlil qiladilar. Shuningdek, bu gaplarning turlarini aniqlaydilar.

1. Odam borki, odamlarning naqshidir.

2. Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.
3. Har kishikim birovga qozgay choh,
Tushgay ul aro o'zi nogoh.
4. Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
O'g'lidin anga bu ish siroyat qilg'ay.

Bunda A.Navoiyning hayot yo'li o'quvchilar uchun naqadar muhim ekanligini bilib olish mumkin. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi gaplari ham bunga misol bo'la oladi: «Yoshlarimizga hazrat Navoiy ijodini chuqur o'rgatishni tizimli yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega, shuning uchun Alisher Navoiy asarlarining bugungi yoshlar tushunadigan ixcham namunalarini yaratish kerak».

«**Zukko o'quvchi**» usulida o'quvchilar gaplarni o'qiydilar, tahlil qiladilar va bu gaplar qaysi asardan olinganini aytib beradilar.

1. Uning hayoti Orol dengizi bilan bog'liq bo'lgan, shuning uchun u suvni o'zining ajralmas qismidek his qiladi. («Tanho qayiq») 2. U qayiqda yashashda davom etadi, chunki bu uning hayotining ma'nosi edi. («Tanho qayiq») 3. Yana shunisi qiziqki, hech kim, hatto, otam ham uning qanaqa daraxt ekanini bilmas edi. («Daraxt») 4. Har kecha u suvning shovqinini eshitgandek bo'ladi, go'yo dengiz yana qaytib kelayotgandek tuyuladi. («Tanho qayiq») 5. Ikromjon o'g'li tufayli shunday iztiroblar girdobida qolgan ediki, uni o'zidan boshqa hech kim ovuta olmas edi. («Ufq») 6. Sochi uzun bo'lganidan tizzalasa, kalit bemalol qulfga yetadi. («Qorako'zmajnun») Bu usul orqali o'quvchilarning adabiyot darsida o'tilgan badiiy asarlar qay holda xotirasida saqlanganini bilish mumkin bo'ladi.

«**Bilarmidingiz?**» usulida o'quvchilarga turli sohalarga oid ma'lumotlar beriladi, ular gaplarning turini aniqlashi, shuningdek, bu ma'lumotlarni bilish-bilmasliklarini aytishlari kerak. 1. Qizig'i shundaki, Islandiyada havo iliq, Grelandiyaning 86 foizi muz bilan qoplangan. 2. YUNESKOning bosh maqsadi shuki, u insoniyatning intellektual va axloqiy hamkorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan yangi jahon urushlarining oldini olishga harakat qiladi. 3. Tilshunoslik fanidan shu narsa ma'lumki, dunyoda so'z jihatidan eng badavlat til arab va ingliz tillari hisoblanadi. 5. O'zbekistonlik olimlar yurak xuruji uchun jahon andozalariga javob beradigan «Allapinin» prepatini kashf etdilar, shuning uchun ular Beruniy nomidagi

davlat mukofoti bilan taqdirlandilar. 6. Qutb yulduzini topib olish qiyin emas, chunki u osmondagi eng yorqin yulduzlardan biridir. Bu usul orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyati ham tekshiriladi.

«**Bizni birlashtiring**» usulida o'quvchilar ikkiga bo'lingan kapalakdagi gaplarni mazmuniga qarab birlashtirishlari kerak. 1. Inson qanchalik kamtar bo'lsa, u shunchalik maqtovga loyiqdir. 2. Kimning ko'ngli ochiq bo'lsa, uning el o'rtasidagi martabasi ulug' bo'ladi. 3. Qayerda ish to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish bo'ladi. 4. Shuni yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz. 5. Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin. Bunda o'quvchilarda kamtarlik, to'g'rilik, ochiq ko'ngillik xislatlarini uyg'otish maqsad qilib olingan.

«**Telegramma**» usulida o'quvchilar bayram munosabati bilan o'z do'stlariga tabriknoma yozadilar. Matnda ergashgan qo'shma gaplardan foydalanishlari kerak. Bu usul o'quvchilar o'rtasida do'stlik rishtalarini bo'g'lash imkonini beradi.

«**Test ishlash**» usulida ergashgan qo'shma gaplarga doir test ishlashadi. Shu orqali yangi mavzu mustahkmlanadi.

«**Meni tanla**» usulida 1-guruh o'quvchilari ega ergash gap va aniqlovchi ergash gaplarni tanlaydilar, 2-guruh o'quvchilari to'ldiruvchi ergash gap va hol ergash gaplarni tanlaydilar. Tanlagan gaplarini magnit taxtasiga yopishtiradilar.

1. Kim izlansa, u, albatta, maqsadiga erishadi. 2. Anvarga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi. 3. Shu narsani esdan chiqarmangki, odam odam bilan uchrashadi, tog' tog' bilan uchrashmaydi. 4. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda bo'ladi. 5. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. 6. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi. 7. Shuni esdan chiqarmangki, abituriyent hayotini o'zgartirish uchun yo'lga chiqqan shaxsdir. 8. Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar. «**Saylanma diktant**» usulida o'quvchilarga «O'rtar», «Mendirman o'sha», «Vatan» qo'shiqlari eshittiriladi, ular shu qo'shiqlar matni ichidan ergashgan qo'shma gaplarni topadilar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchi dars davomida namoyish etadigan pedagogik texnologiyalar har bir o'quvchining darsdagi rolini aniqlab, ularni nafaqat individual ishlashga, balki yana bir-biriga yordam berish, bir-biri uchun javobgarlikni oshirishga, bolalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish imkoniyatini yaratishga, ularni o'z ishiga ijodiy yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».
2. N. Mahmudov. Ona tili. (Oʻrta taʼlim muassasalarining 11-sinfi va oʻrta-maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻquvchilari uchun darslik) Toshkent, «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
3. Sh. Mirziyoyev. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz». Toshkent, «Oʻzbekiston» nashriyoti, 2017.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING